



NAMANGAN VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

**NAMANGAN  
VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL  
YANVAR-MAY**

2023- yilning yanvar-may oyida, Namangan viloyatida jami **2345,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **102,6 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi: Yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

**26,7**

**5,7**

**67,6**


Norasmiy sektor

Kichik korxona  
va mikrofirmalar


**2023- yil 1- iyun holatiga  
ko‘ra qurilish ishlari  
bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar, birlikda**



**Yillar kesimida soni**



**Hududlar kesimida**



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2022- yil bilan solishtirganda 68,3 foizni tashkil etgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;  
 binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 50,2 foiz ulushi;  
 fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 15,0 foiz ulushi;  
 ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 34,8 foiz ulushni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o‘tgan yiliga nisbatan, % da
	01.06.2022- y.	01.06.2023- y.	
Namangan viloyati	2398	1638	68,3

*tumanlar:*

Mingbuloq	79	53	67,1
Kosonsoy	262	169	62,8
Namangan	123	70	56,4
Norin	134	92	67,6
Pop	118	102	81,6
To‘raqo‘rg‘on	107	71	65,1
Uychi	236	170	71,7
Uchqo‘rg‘on	173	134	75,7
Chortoq	172	106	62,3
Chust	170	122	70,1
Yangiqo‘rg‘on	105	86	83,5
Namangan shahar	719	463	63,9
shundan			
Davlatobod	202	132	65,0
Yangi namangan	161	114	70,4



**2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra  
Namangan viloyatida  
faoliyat ko'rsatayotgan qurilish  
korxonalarini ulushi, % da**




Namangan sh.(28,3)



Uychi (10,4)



Kosonsoy (10,3)





## Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-may uchun

	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2345084,6</b>	<b>133465,0</b>	<b>1585130,8</b>	<b>626488,8</b>
<i>tumanlar:</i>				
<b>Mingbuloq</b>	72260,4	0	54080,2	18180,2
<b>Kosonsoy</b>	209195,5	0	121382,4	87813,1
<b>Namangan</b>	168213,1	0	116088,8	52124,3
<b>Norin</b>	124642,7	0	66687,5	57955,2
<b>Pop</b>	165024,1	43458,8	89155,0	32410,3
<b>To'raqo'rg'on</b>	129506,2	3060,0	93342,2	33104,0
<b>Uychi</b>	223400,1	28431,8	159207,4	35760,9
<b>Uchqo'rg'on</b>	144334,4	0	91349,1	52985,3
<b>Chortoq</b>	193308,4	0	133666,2	59642,2
<b>Chust</b>	113535,4	0	57374,2	56161,2
<b>Yangiqo'rg'on</b>	132393,0	0	76381,2	56011,8
<b>Namangan sh.</b>	<b>669271,3</b>	<b>58514,4</b>	<b>526416,6</b>	<b>84340,3</b>
<i>shundan</i>				
<b>Davlatobod</b>	191014,6	0	175750,2	15264,4
<b>Yangi Namangan</b>	184743,3	19056,2	145236,5	20450,6


2023- yilning yanvar-may oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 133465,0 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 95,7 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,5 % punktga kamayib, 5,7 % ni tashkil etdi.


# Qurilish ishlari

## 2023- yil yanvar- may uchun



**Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.**





**MAʼLUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Pop tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 26,3 %) ga toʼgʼri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-may oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,6 % i to'g'ri kelib, 2022- yil ko'rsatkichiga nisbatan 1,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilga nisbatan 101,3 % ni tashkil etgan holda 1585130,8 mln. so'm miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



67,6

2023- yil  
yanvar-may

69,3


2022- yil  
yanvar-may



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Namangan shahri (526416,6 mln. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 33,2 %), Uychi tumani (159207,4 mln. so'm yoki 10,0 %), Chortoq tumani(133666,2 mln. so'm yoki 8,4 %)ga to'g'ri keldi.

## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi **26,7 %** ni tashkil etdi yoki **626488,8 mln. so‘m** miqdorida qayd etildi. 2022- yilga nisbatan **107,9 %** ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **74399,0 mln. so‘m** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2270685,6 mln. so‘m** qurilish ishlari bajarildi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2023- yil yanvar-may oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **75,6 %** yoki **1773142,4 mln. so'm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**7,5 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 133465,0 mln. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **7,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 1022339,0 mln. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **57,7 %** ni tashkil etdi

**57,7 %**

**34,8%**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **617338,4 mln. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **34,8 %** ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-may oylarida


	Qurilish ishlari, mln. so'm	o'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta quollantirish
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2345084,6</b>	<b>102,6</b>	<b>1773142,4</b>
<b>tumanlar:</b>			
Mingbuloq	72260,4	114,4	58513,7
Kosonsoy	209195,5	98,8	154263,4
Namangan	168213,1	97,0	132985,7
Norin	124642,7	113,2	90430,26
Pop	165024,1	88,9	120573,7
To'raqo'rg'on	129506,2	107,8	102842,3
Uychi	223400,1	115,7	161356
Uchqo'rg'on	144334,4	93,5	111708
Chortoq	193308,4	98,1	140078,2
Chust	113535,4	98,5	90430,26
Yangiqo'rg'on	132393,0	102,6	95749,69
<b>Namangan shahri</b>	<b>669271,3</b>	<b>105,7</b>	<b>514211,2</b>
shundan			
Davlatobod	191014,6	110,7	161356
Yangi Namangan	184743,3	123,6	145397,7

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

4,1

2022- yil  
yanvar-may

3,7

60,5

35,4

58,3

38,0

2023- yil  
yanvar-may



Yirik qurilish  
tashkilotlari



Kichik korxona  
va mikrofirmalar



Norasmiy  
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,7 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga kamaygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,2 % punktga kamayib, 58,3 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,6 % punktga ko'payib, 37,9 % ni tashkil etdi.

## Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 32,5 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 15,3 % punktga ko'paygan.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 67,5 % (15,3 % punktga kamaygan) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi (0,0 % punktga kamaygan).

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari  
2022- yil yanvar-may



2023- yil yanvar-may

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 7,9 % punktga kamaygan va 1,1 % ni tashkil etdi. Qolgan 98,9 % ni kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilga nisbatan 7,9 % punktga ko'paygan.

